GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SABABLARI VA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Karabayeva Ra'no Botirovna
O'rmonjonova Marjona Zoirjonovna
Farg'ona davlat universiteti

Iqlim o'zgarishi (shuningdek, **global isish**) – butun dunyodagi o'rtacha haroratning davomli o'sishi va uning Yer iqlimiga o'tkazadigan ta'siri. Global haroratning hozirgi davrdagi ko'tarilishi inson faoliyati, xususan, sanoat inqilobidan beri qazib olinayotgan yoqilg'ining yoqilishi bilan bog'liq. Qazib olingan yoqilg'idan foydalanish, o'rmonlarni kesish va ba'zi qishloq xo'jaligi va sanoat amaliyotlari iqlim o'zgarishiga sabab bo'luvchi issiqxona gazlarini chiqaradi. Global isishda asosiy ro'l o'ynayotgan issiqxona gazi bo'lmish CO_2 millionlab yillar davomida kuzatilmagan darajada, taxminan, 50%ga o'sdi.

Yer iqlimining **isishi va sovushi** — sayyoramiz tarixida takrorlanib turadigan tabiiy jarayon bo'lib, u

Yer orbitasining o'zgarishi, Quyosh faolligi, okean oqimlari, vulqon faoliyati va atmosfera tarkibidagi tabiiy o'zgarishlar bilan bog'liq. Yer tarixida bir necha bor muzlik davrlari (sovishi) va muzlar orqaga chekingan iliq davrlar (isishi) kuzatilgan.

Isish davrlarida global harorat ko'tariladi, muzliklar qisqaradi, dengiz sathi balandlashadi. Bunday davrlarda ko'plab hududlarda o'rmonlar kengayib, o'simlik va hayvonot dunyosi shimolga yoki balandroq hududlarga ko'chadi. Isish jarayoni okean suvlarining kengayishiga, ayrim joylarda kuchli yog'ingarchilik, boshqa hududlarda esa qurg'oqchilik kuchayishiga olib keladi.

Sovish davrlarida esa harorat pasayib, muzliklar kengayadi, qalin muz qatlami Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyoning katta qismini qoplab olgan tarixiy davrlar mavjud. Bunday sovish davrlarida dengiz sathi pasayadi, ekotizimlar qisqaradi, ba'zi turlar sovuq sharoitga moslashishga majbur bo'ladi yoki yo'qolib ketadi. Yerning isishi va sovishi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tabiiy

sikllar orqali millionlab yillar davomida takrorlanib kelgan. Shu bilan birga, bu jarayonlar insoniyat tarixi, qishloq xo‘jaligi va sivilizatsiyalarning rivojiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Masalan, sovuq davrlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish qisqargan bo‘lsa, iliq davrlarda esa qishloq ho’jaligida hosildorlik oshgan.

Iqlim o'zgarishining asosiy sabablari

Inson faoliyati natijasida Yer atmosferasida "issiqxona gazlar" ning ko'payishi hisoblanadi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Qazilma yoqilg‘ilarni yoqish (ko‘mir, neft, gaz)

Qazilma yoqilg‘ilar dunyo energetikasining asosiy manbai bo‘lib qolmoqda. Ularni yoqish jarayonida:

- CO_2 ning rekord darajada ko’payishi;
- Havoning ifloslanishi;
- Issiqxona effektining kuchayishi;

Buning sabablari:

- Ko‘mir elektrostansiyalari eng katta CO_2 chiqaruvchi manba hisoblanishi;
- Avtomobillarni, samolyotlarni va kemalarni ishlatish neft mahsulotlarining yana ham ko‘p yoqilishiga olib kelishi;
- Gazni yoqish ko‘mirga qaraganda “toza” bo‘lsa-da, baribir katta miqdorda CO_2 chiqarishi;

Natijada esa yer yuzasida suniy iqlim o’zgarishigaolib keluvchi sabablar hosil bo’laveradi.

2. O‘rmonlarning kesilishi

Dunyo bo‘yicha har yili millionlab gektar o‘rmonlar yo‘q qilinadi.

Buning asosiy sabablari:

- Yangi yerlarni qishloq xo‘jaligiga aylantirish;
- Yog‘och ishlab chiqarish;
- Uy-joy qurilishi;
- Chorvachilik maydonlarini kengaytirish;

O‘rmonlarning kamayishi nafaqat CO_2 miqdorini oshiradi, balki:

- Biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga,
- Tuproq eroziyasining kuchayishiga,
- Mahalliy iqlim maromining o‘zgarishiga,

ham olib keladi.

3. Sanoat jarayonlari

Sanoat issiqxona gazlarini chiqarishda ikkinchi o‘rinda turadi. Bu sohadagi asosiy chiqariladigan gazlar:

- **Metan (CH_4)** — neft va gaz qazib olishda;
- **Azot oksidi (N_2O)** — kimyo va o‘g‘it ishlab chiqarishda;
- **F-gazlar (fluorli gazlar)** — sovutgichlar, konditsionerlar, sanoat texnikalarida qo‘llashda;

Bundan tashqari, sement ishlab chiqarish dunyodagi CO_2 chiqarilishining 8-9% ini tashkil qiladi.

4. Qishloq xo‘jaligi

Qishloq xo‘jaligi global isishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Sabablari:

Chorvachilik:

- Sigirlar, qo‘ylar va echkilar hazm qilish jarayonida;
- Metan CO_2 ga qaraganda 25–30 baravar kuchli issiqxona qizdirishda.

O‘g‘itlardan foydalanish:

- Azotli o‘g‘itlar tuproqdan N_2O chiqarilishiga sabab bo‘lishi;
- N_2O, CO_2 dan foydalanish;

O‘rmonlarning o‘rniga ekin ekish:

Bu jarayon ham tabiiy ekotizimlarga zarar yetkazadi va CO_2 ni yutish hajmini kamaytiradi.

Iqlim o‘zgarishining iqtisodiy oqibatlari geografik jihatdan bir-biridan farq qiladi va aniq prognoz qilish amalda qiyin. Tadqiqotchilar hozirgi iqtisodiy modellashtirish iqlim o‘zgarishi ta’sirini jiddiy e’tibordan chetda qoldirayotganligini va ehtimoliy zararlar haqida aniqroq ma’lumot beruvchi yangi modellar zarurligi haqida ogohlantirilishi zarurdir. Iqlim o‘zgarishidan kelib chiqqan iqtisodiy xavflar global savdo tizimini ham o‘zgartirishi mumkin, chunki tabiiy resurslar yetishmasligi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi pasayish va transport infratuzilmasidagi uzilishlar xalqaro bozorlarga ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. T 2005-yil.
2. Mustafoyev S., O’rinov S., Suvonov P. Umumiy ekologiya. Toshkent 2006-yil.
3. Usmonov E. Ekologik munosabatlarning globallashuvi. Toshkent.
4. Globalscholars.uz